

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BIZNES VA TURIZM TERMINLARINI
ISHLATISH METODIKASI.

Nematova Maxsumaxon

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

Annotatsiya: Fan va texnika rivojlanayotgan bir davrda insonlarning o`zga mamlakatlar tarixi, madaniyati, urf-odatini o`rganishga bo`lgan ishtiyoq va havas tobora ortmoqda. Bugungi kunda nutqimizda juda ko`plab turistik leksemalar va frazalar lug`atshunoslikda yangi o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda hamda leksikografiyaning rivojlanishiga turtki bermoqda. Mamlakatlararo mustahkamlanayotgan turli ko`rinishdagi aloqalar, diplomatik munosabatlar, turli tadbirlarning keng miqyosda nishonlanishi turizm leksikologiyasining yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida biznes va turizm terminlarini ishlatish metodikasi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Fan-texnika, biznes, o'zlashma so'z, tourism, tourism word units, touristic expressions

O'zbek leksikologiyasidan farqli holda ingliz leksikologiyasi turizm bilan bog`liq tushunchalarni o`zida keng mujassamlagan yo`nalishdir. Turizm fransuzcha tour so'zidan olingan bo`lib, sayr-sayohat ma'nosini anglatadi. «O'zbek tilining izohli lug`ati» da sayohat so`zi haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi. «Sayohat-arabcha dam olish, hordiq chiqarish yoki dunyonи ko`rish, o`rganish maqsadida qilingan safardir»-deyiladi. Safar tushunchasining o`zi ham arabchadan olingan bo`lib, xizmat yoki sayohat maqsadida biror joyga borishdir. Karvonsaroy-karvonlar tunab o`tadigan rabot, saroy. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Kavkaz orti shaharlari savdo yo`lida barpo etilgan.

Ingliz leksikologiyasida turizmga oid quyidagi birliklar yuzaga kelgan: Baggage. Travelling bags and personal possessions of a traveler. In travel terms, accompanied baggage is that carried in the same vehicle as the passenger; unaccompanied baggage is that carried separately. Checked baggage is handed over by the passenger, to be claimed at the destination; unchecke(d) or carry on baggage stays in the passenger's possession. Yuk. Sayohat sumkalari va sayohatchining shaxsiy narsalari. Sayohat nuqtai nazaridan, hamrohlik qilingan bagaj-bu yo'lovchi bilan bir xil transport vositasida olib boriladigan yuk; kuzatib borilmagan bagaj-bu alohida olib boriladigan yuk. Tekshirilgan bagaj yo'lovchi tomonidan belgilangan joyga da'vo qilish uchun topshiriladi; tekshirilmagan(yoki olib yurilmagan) bagaj yo'lovchining posessiyasida qoladi. Baggage allowance. Per-person amount of baggage by total weight, number of pieces, or volume that will be transported without additional charge. Yuk uchun ruxsat.



Qo'shimcha to'lovsiz tashiladigan umumiy og'irligi, dona soni yoki hajmi bo'yicha har bir kishi uchun yuk miqdori. Baggage check. Receipt or claim ticket for accompanied baggage, issued by a carrier. Bagajni tekshirish. Birga bagaj uchun olish yoki da'vo chipta, tashuvchi tomonidan issued. Banquet room. Often part of a hotel, providing a paying group with a private area where the necessary service personnel, and prearranged amounts and varieties of food and beverage service. Banket xonasi. Ko'pincha mehmonxonaning bir qismi, pullik guruhni xususiy maydon, zarur xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va oziq-ovqat va ichimliklar xizmatining oldindan belgilangan miqdori va xilma-xilligi bilan ta'minlaydi. Coffee shop. Commercial food facility designed to offer the customer a meal or snack in an informal atmosphere without the service, variety or cost associated with a restaurant, and at those times when a restaurant may not be open. Qahvaxona. Tijorat oziq-ovqat inshooti mijozga restoran bilan bog'liq xizmat, xilma-xillik yoki xarajatlarsiz norasmiy muhitda ovqat yoki gazak taklif qilish uchun mo'ljallangan va restoran ochiq bo'lmasligi mumkin bo'lgan paytlarda murojaat etiladigan maskan.

To'gridan-to'g'ri tarjima ya'ni kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi sky-scraper; nemis tilidagi klassen kampflarni misol qilishimiz mumkin. Yana shuni ham aytish lozimki, o'zlashma so'zlarni muhimlilik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt g'oya va fikr) bilan birga bo'lsa, masalan: patata gaytan so`zi bo'lib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan, yoki caffe so`zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero ya'ni nol mavjud bo'lmasgan), tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan. O'zlashma so'zlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o'rinn tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi. O'zlashma so'zlarning boyligi leader, baby-sitter, week-end so'zlarida ko'rindi. Ingliz tilidagi so'zlar va birikmalar ba'zida ularning qisqaligi tufayli qulaylik tug'diradi.

O'zlashma so'zlar yozma va og'zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so`zi yozma til orqali kirib kelgan. Agar tunnel so`zi og'zaki tildan kirib kelganda edi tanel deb talaffuz qilinar edi, xuddi ingliz tilidagidek. Budget so`zi esa aksincha badjet deb talaffuz etiladi, chunki og'zaki tildan kirib kelgan. Shunday turdag'i ingliz tili so`zları borki, ular bizning nutqimizda bir xil talaffuz etiladi va yoziladi, masalan: flirt so`zi shu kabi yoziladi va o'qiladi. Biz shuni bilishimiz kerakki, neologizm va o'zlashma so'z o'rtasida farqlar mavjud. Yuqorida biz o'zlashma so'zlar tilimizga singib ketgan va lug'atlarimizdan joy olgan so'zlar hisoblanadi deya ta'rif berdik. Neologizmlar esa tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so'zlardir. Yana



shuni aytishimiz kerakki, neologizmlar vaqt o‘tishi va iste’moldagi so‘zlarimiz qatoriga qo‘shilishi bilan o‘zlashma so‘zlarga aylanadi. Neologizmlarni o‘rganuvchi fanni esa neologiya deyiladi. Hozirgi kunda neologizmlar ustida ish olib borib va hozirgi kun neolgizmlarini yig‘ib lug‘at holatida chiqarilsa, u muayyan vaqt davomiyligida neologizm holatida turishi mumkin, ammo keyinchalik o‘zlashma so‘zlar lug‘atiga aylanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilidagi mavjud turizm terminlarining izohli, elektron va tarjima lug`atlarini yaratish o‘zbek terminologiyasining muhim vazifalardan biridir. Izohli lug`atlarda, turistik terminlar uchun tuziladigan maxsus lug`atlarda terminlarning berilishi va izohlanishi o‘quvchining shu fan borasidagi eng zaruriy va umumiy tushunchalar bilan tanishishiga va uning bilim saviyasini oshirishga, bundan tashqari shu sohaga qiziqish paydo qilishga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. M.Q.Ismoilova. Turizmga oid leksikaning lingvomadaniy jihatlarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari. -Qarshi.-b.14
2. Сирожиддинов Ш. Сўз ўзлаштириш омиллари хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти, 22390 – № 60 – 6.
3. Metelka, Charles J. The dictionary of tourism. Wheaton III.: Merton house Travel and Tourism publishers. 1986.
4. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich. Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna. Turizm asoslari. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2011.

